



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

### HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI MADANIYATINING TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Ro'ziyev A.N

*Andijon FVB HFXOM o'qituvchisi*

Hozirgi paytda davlatimiz oldidagi eng asosiy muammolardan biri xavfsizlikni ta'minlashdir. Shuning uchun barcha o'quv yurtlaridagi birinchi dars mustaqillik va tinchlik darsidir.

Muammoning dolzarbligini tushunish millat va davlat miqyosida shakllanadi. Zamonaviy O'zbekistonimiz yashash darajasining yuqoriligini ko'rsatkichlaridan biri aholini xavfsizligini ta'minlashdir.

Mavjud amaliyotga yondashilsa, ko'pgina insonlarning o'z hayoti natijalaridan qoniqmaslik va ixlosi qaytishi kuzatilmoqda. Ularning asabiylashuvini asosiy faktorlaridan biri zaiflik va xavfsizlikni yo'qligill, zaruriy moddiy va madaniy talablarini qondirish, o'z qobiliyatlarini namoyish qilishni imkoni yo'qligidir.

Odamlar tabiiyki, bu xolatni o'zgartirishni davlatdan kutishmoqda.

Xavfsizlik fenomenini paydo bo'lishini insonlarga, ularning oilasiga, jamiyat ga, davlatga, butun sivilizatsiyaga xavflarni, tazyiq va tavakkalni anglash va yuzaga kelish faktlarini tushunib yetishi bilan bog'lash mumkin. Insonlarni atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlaridagi xavflarga reaksiyasi hayvonlarning instinktiv harakatlaridan farqli o'laroq, o'zining fahm-farosati natijasida voqealarni avvaldan rivojlanishini baholay olishi bilan farqlanadi.

Bu fazilati xavfsizlikni oldini olish chora-tadbirlarini va samarali qo'llash variantlarini topishga imkon beradi. Insonlar tomonidan xavfsizlikni oldini olish chora-tadbirlari nafaqat mavjud xolatda muxofazalanishni va tazyiqning ma'lum qismini bartaraf etishni, balki ularni yuzaga kelish sabablarini yo'qotish orqali potensial xavfni yuzaga kelishini oldini olishga imkon beradi.

Yangi ustuvor dunyoqarash insonlarning hayot faoliyatini maqsadi va ma'naviy, moddiy boyliklar tizimiga, moddiy extiyojlarining cheksiz o'sishidan qoniqish hosil qilishi va ma'naviy talablarga o'zgartirish kirishini taqozo etmoqda.

Shuning uchun insoniyat oldida biosferaning rivojlanish qonuniyatlari natijasida yuzaga keladigan turli cheklanish va taqiqlashlarni o'z xoxishi bilan qabul qilishi va ifodalash kabi qiyin masala turibdi.

Odamlarning atrof-muxitga bog'liq bo'lmay yashash davri tugadi.

Hozir shu narsa aniq bo'ldiki, insoniyat biosferaning qonunlarini e'tiborga olgan xolda rivojlanishi mumkin.

Buning uchun nafaqat ma'naviy, moddiy boyliklarni, balki madaniyatimizni ham o'zgartirish kerak.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"**

Xavfsizlik madaniyati - madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, u mehnat mahsulotlarining tarkibida, vositalarida aks etadi, insonlarning o'zaro munosabatlarining rivojlanishi va moddiy dunyoni o'zgarishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Talabalarni mehnat subektiga aylanishi atrofda dunyoni o'zgartirishga tayyor bo'lishga, shu bilan birga tashqi xavflarni bartaraf etishga, inson va jamiyat ning hayot faoliyati xavfsiz sharoitini ta'minlashga, xavfsizlik vositalarini yaratish va foydalanishga da'vat etadi.

Madaniyat inson faoliyatining natijasi bo'lgan mahsulotlarnigina emas, balki muloqot shakli va uslubi bo'lgan ilm, tajriba va bilimning mahsulini, intellektual, ma'naviy va estetik dunyoqarashini ham o'z ichiga oladi.

Xavfsizlik madaniyati ilm, tajriba va bilimdan tashqari dunyoqarash fikrlarni, ma'naviy va estetik boyliklarni, xavfsizlik muammolarini xal etishning intellektual tajribasini, birgalikda yashash jarayonidagi o'zaro muloqot va aloqa xavfsizligini ham tushuntiradi.

Madaniyat avlodlar o'zgarishi jarayonida insonlarning hayot faoliyatini tashkil etishi va rivojlanishi, ta'minlanishini usulidir.

Madaniyat xavfsizligining mavjudligini shakllari turli xizmatlarning faoliyatida mujassamlanadi, bular yong'in xavfsizligi, FVVning qutqaruv xizmati, sanepidnazorat, DAN, tez yordam xizmati va b. Madaniyat odamlarning hayoti va faoliyatini turi va shaklida, ularning o'zaro munosabatlarida ifodalanadi.

Xavfsizlik madaniyatining shakli ma'naviy qadriyatlar (inson hayotining bahosi, shaxsni iqtisodiy qiziqishi, sog'lig'ini qadrlashi va yo'lovchilar xavfsiligini tan olish) bo'lib, inson faoliyati, aloxida odamlarning, jamoa va butun jamiyat ning yashashini tashkil etish (aloxida odam, jamoaning ish tartibi, avariya-qutqaruv, qurolli kuchlar, iqtisodiy va boshqa strukturalarning o'zaro munosabati shaxs va jamiyat qonuniyatlarini singdirgan xolda) har kungi faoliyatida va ekstremal xolatdagi o'zaro munosabatlari e'tiborni qamrab oladi.

Madaniyat - turli xil namoyon qilinishi bo'yicha ko'pgina konkret fanlarning obyektiva predmeti bo'lib, har biri o'z tasavvuriga qarab alohida talqin qiladi.

Xavfsizlik madaniyatida bunday maqsad va qadriyatlarga hayotiy (sog'liq, xavfsizlik, farovonlik, to'qlik, komfort va b), ijtimoiy (tavakkalga moillik, xususiy mustaqillik, hayotiy muvaffaqiyatlar va b), siyosiy (ozodlik, qonunchilik va b), ma'naviy (ezgulik, xaqqoniylik, o'zaro yordam va b), diniy (xudoiy qonunlar, najot, farovonlik va b), estetik (ideal, uyg'unlik, mukammallik, ya'ni xavfsiz odam yuksak qadriyatga, uyg'unlik, mukammallikka nisbatan xashaki odamga ko'ra yaqin) xossalari kiradi.

Madaniyat - insonning ma'lum ijodiy kuch va qobiliyatning rivojlanish darajasidir. Demak, xavfsizlik madaniyati - insonning ma'lum ijodiy kuch va qobiliyatning rivojlanish darajasida, zararni oldini olish va kamaytirish (hayot faoliyatidagi ta'sir etuvchi xavfli va zararli faktorlar) insonni shaxsan o'ziga, boshqa odamlarga, umuman jamiyat ga zarar kelishining tavakkal profilaktikasiga qaratilgan.

Xavfsizlik madaniyatida hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatni tushunchalari hodisa va jarayonlarni o'zaro bog'liqligini namoyon qiladi.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "**

Xavfsizlik madaniyati ilmda ijtimoiy voqea bo'lib, (inson va jamiyat xavfsizligi haqidagi ilmiy bilimlarni), madaniyatni, mifologiya, ideologiya, din, sportni aks ettiradi. Hayot faoliyati xavfsizligi ilmiy fan sifatida turli fanlardagi 15 ma'lumotlarni tizimlashtiradi va umumlashtiradi, inson va jamiyat qonunlarini tushunarli tarzda aks ettiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abramova S.V., Boyarov E.N. Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida ta'lim bo'yicha mutaxassisni tayyorlashning metodologik asoslari // Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. - 2011. - № 6.

2. Ayzman R.I. Korolev V.A. Maktab o'quvchilarini zamonaviy o'qitishda "Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari" kursining qiymati // Sibir pedagogik jurnali. No 7. 2012. S. 211-215.

3. Ayzman R.I. Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari va birinchi tibbiy yordam: o'quv qo'llanma. nafaqa. - Novosibirsk, 2004. - 400 p.

4. Alexandrova E.A. Ta'lim maydoni: bolalar va kattalar submulturalari chorrahasida // Maktabdagi tarbiyaviy ishlar. 2009. № 7. S. 25-30.

5. Alekseev S.V. Atrof-muhit xavfsizligi kontseptsiyasimaktabningta'limmuhiti // Maktabdabiologiya. 2013. № 4. S. 44-51.

Natijalari bo'yicha tahliliy materiallar8 va 9-sinflarda "Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari" mavzusida ta'lim sifatini milliy o'rganish. - 3 soat ichida - 2-qism.